

XODIMLARGA TUNGI VAQTDAGI ISH UCHUN HAQ TO'LASH

Ametova Nasiba Danilovna

Toshkent davlar agrar universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15193022>

Ish haqi - bu xodimning malakasiga, bajarilgan ishning murakkabligi, miqdori, sifati va shartlariga qarab ishlagan mehnati uchun beriladigan mehnat haqi, mukofot, kompensatsiya va rag'batlantirish to'lovlari [3].

Ish haqi tizimi - bu ish haqi darajasini belgilash qoidalari to'plami. Ish haqi tizimini mehnatga haq to'lash shakllari deb ataladigan guruhlariga ajratish mumkin[2].

Mehnatga haq to'lash ish beruvchi tomonidan xodimga uning mehnati uchun to'lovlar belgilash va ularni amalga oshirish yuzasidan mehnat shartnomasi taraflari o'rtasidagi mehnat to'g'risidagi qonunchilik, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar va mehnat shartnomasi bilan tartibga solingan munosabatlar tizimidir.

Ish beruvchi tomonidan xodimning malakasiga, bajaradigan ishining murakkabligiga, miqdoriga, sifati va sharoitlariga qarab to'lanadigan mehnat uchun mukofot summasi, shuningdek kompensatsiya xususiyatiga ega to'lovlar (kompensatsiya xususiyatiga ega qo'shimcha to'lovlar va ustamalar, shu jumladan normal ish sharoitlaridan chetga chiqadigan sharoitlarda ishlaganlik, noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun shunday qo'shimcha to'lovlar va ustamalar hamda kompensatsiya xususiyatiga ega boshqa to'lovlar) va rag'batlantiruvchi to'lovlar ish haqidir[1].

Xodim ish vaqtidan tashqari ishlaganlik uchun kamida ikki barobar miqdorida haq to'lanishi kerak.

Xodim bilan tuzilgan sharnomaga asos xodimning xohishiga ko'ra ish vaqtidan tashqari ish uchun oshirilgan haq to'lash o'rniga ish vaqtidan tashqari ishlab berilgan vaqtning davomiyligiga muvofiq keladigan qo'shimcha dam olish vaqtini berish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Bunday holda ish vaqtidan tashqari ish uchun bir hissa miqdorida haq to'lanadi, dam olish vaqti uchun esa haq to'lanmaydi.

Quyidagi hollarda tungi vaqtdagi mehnat uchun haq to'lash kamida bir yarim baravar miqdorida amalga oshiriladi:

- **mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimida** — tungi vaqtdagi ishning har bir soati uchun **1,5 yoki** undan ortiq koeffitsientni qo'llagan holda;
- **mehnatga haq to'lashning ishbay tizimida** — tegishli razryadga (malakaga) ega bo'lgan vaqtbay ishlovchining soatlik tarif stavkasining (maoshining) **50 foizi** yoki undan ortiq miqdorida ishbay ish haqi va qo'shimcha to'lov to'liq to'lanadi.

Tungi vaqtdagi ish uchun oshirilgan miqdorda haq to'lash tarif stavkalariga (maoshlarga) kiritilmaydi.

Tungi vaqtdagi, shuningdek ko'p smenali rejimdagi ish uchun ish haqiga doir qo'shimcha to'lovning aniq miqdori jamoa shartnomasida, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qabul qilinadigan ichki hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida belgilanadi.

Quyidagi xodimlar tungi vaqtdagi ishga qabul qilinmaydi:

-homilador ayollar va tort yoshga tolmanan bolasi(on olti yoshga tolmanan nogiron bolasi) bor ayollar

-on sakkiz yoshga tolmanan shaxslar

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa toifadagi hodimlar.

Soat 22-00 dan to soat 6-00 gacha bolgan vaqt tungi vaqt hisoblanadi[1]. Agar xodim uchun belgilangan kundalik ish (smena) muddatining kamida yarmi tungi vaqtga togri kelsa, tungi ish vaqti muddati bir soatga,ish xaftasi muddati ham shunga muvofiq ravishda qisqartiriladi.

Tadqiqot obekti hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonasida xodim bir oy mobaynida xodim tungi ish rejimida 80 soat ishladi. Soatbay tarif stavkasi 55 000 so'm. Tungi ish uchun mehnat haqi mehnat shartnomasi tuzilayotganda taraflar kelishuviga binoan soatbay tarif stavkasining 1,5 baravari miqdorida belgilangan. Xodim tolanadigan qoshimchahaq miqdori 71 250 som(80 s. x 55 000 so'm x 1,50).

Xarajatlar tarkibi togrisidagi nizamning 1.2.3.1-bandi tungi vaqtdagi ish uchun ustamalar va qo'shimcha to'lovlar miqdorini ishlab chiqarish tusidagi mehnatga haq to'lash xarajatlari yoki qo'shimcha to'lovlar miqdorini hisobga olmagan davriy xarajatlar tarkibigakiritadi hamda ularni qonunda belgilangan meyorlarga kiritadi. Mehnat kodeksi ishga qo'shimcha to'lovlarning yuqori chegarasini cheklamay, faqat pastgi chegarasini belgilagan. Tungi vaqtdagi ish uchun qo'shimcha to'lovlarning real miqdorlari korxonaning normativ hujjatlarida belgilanadi, shuning uchun har qanday qo'shimcha to'lovlar mahsulot qiymatiga yoki soliq natijalarisiz davr xarajatlariga kiritilishi lozim.

Amaliyotda korxonalar kopincha ikki smenali rejimda ishlaydilar: 9-00 dan 18-00 gacha – kunduzgi smena va 18-00 dan 12-00 gacha – tungi smen. Lekin amaldagi qonunchilik faqat tungi vaqtdagi yani 22-00 dan 6-00 gacha bolgan ish uchun yuqori haq to'lash zarurligini nazarda tutadi. Kechki vaqtdagi ish uchun umumiy tartibga ko'ra qo'shimcha haq to'lanmaydi. Lekin shu vaqtning ozida korxona o'z xodimlariga kechki smenadagi ish uchun tegishli lokal hujjatlarni (buyriq, farmoyish) rasmiylashtirib, qoshimcha to'lovlarni mustaqil ravishda belgilashi mumkin.

Bunda shuni hisobga olish kerakki, bunday kompensatsiya tusidagi to'lovlar xarajatlar tarkibi to'grisidagi nizamga 1-ilovaning 1.4-bandi asosida qayta hisob bilan soliq solish bazasiga kiritilishi shart. Shuning uchun kechki soatlarda ishlab chiqarishda band bolgan xodimlar mehnatiga qoshimcha haq to'lashdan manfaatdor korxonalar bu xodimlarning maoshlarini (tarif stavkalari, ishbay haq tolashdagi baholar v.x) oshirishlari va keyinchalik ish haqi miqdorining to'liq hajmini foydadan soliq undirishda hisobga olinadigan mehnat haqi xarajatlari tarkibiga kiritishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tungi vaqt ishlagan xodimlarga, ish (xizmatlarni)ni sifatli bajargan xodimlarga vaqtbay mukofot shaklini qo'llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston respublikasi mehnat kodeksi. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
2. Ametova N.D "Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etishning ayrim jihatları". Journal of economy, tourism and service. Vol.2, №12, 2023. –b. 10.

3. Гартвич А. В. Бухгалтерский учет с нуля: Самоучитель. — СПб.: Питер, 2013. - 298 с.
4. Эргашева Ш.Т. **Бухгалтерский учёт**. Учебное пособие. «Iqtisodiyot moliya», - Т. 2010. - 305 с.



INNOVATIVE
ACADEMY